Shuningdek, mazkur hujjat bilan ilmiy va amaliy tadqiqotlar natijalarini asosida erkaklar va xotin-qizlar teng huquqligini ta'minlash bo'yicha davlat organlari va tashkilotlar hamda jamiyatda loyiha shart-sharoit yaratish maqsadida Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti negizida Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Mazkur institut oldida qo'mita tizimi xodimlari, shuningdek, mahallagi xotin-qizlar faollarining malakasini oshirish, ularning faoliyatini uslubiy qo'llab-quvvatlash, oila, xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga oid muammolarni chuqur tahlii qilish, natijalar bo'yicha muammolar yechimi yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish va kiritish, uslubiy qo'llamalar va targ'ibot materiallarni tayyorlash, fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar, sotsiologik so'rov, ilmiy konferensiolar o'tkazish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalar qo'yildi.

Davalatimiz rahbarining qarorida esa farmonda qayd etilgan vazifa va maqsadlarni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, 2030-yilgacha barcha davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarida, sud va huquqni muhofaza qilish organlari boshqaruv xodimlari orasida xotin-qizlar ulushini 30 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi.

2024-yil 1-fevraldan boshlab kasanachilik hunarmandchilik yo'naliшida yangi ish boshlayotgan xotin-qizlarga yordam berish maqsadida ta'lim tashkilotlari kasb-hungra o'qitish kurslari tashkil etildi. Bunda o'qish xaratatlari Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini hisobidan moliyalashtiriladi.

Xotin-qizlar.uz platformasi nezigidagi "Band bo'Imagan xotin-qizlar" moduli ishlab chiqiladi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab ishsiz xotin-qizlar xamonaviy milliy liboslarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish maqsadida tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatindan o'tgandan so'ng bino va inshooting dastlabki uch oylik ijara to'lovi bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha mijdorda Aholini tadbirkorlikka jaib qilish jamg'armasi tomonidan qoplab beriladi.

Bundan tashqari, yangi yildan boshlab xotin-qizlarning haq to'lanadigan jamoat ishlari asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ish yurituvchi bo'lib ishlashiga o'n bir oygacha muddatga rusxat berilmoqda. Ish beruvchilar tomonidan ish o'rinnari zaxiraga qo'yildigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalariga oilavly (maishiy) zo'ravonlik natijasida jaibranganlar ham kiritiladi.

Qaror bilan amalga oshirilayotgan eng katta o'zgarishlardan biri oilaviy nizolarni ko'rishga ixtisoslashgan sudyalar korpusining shakkantirilayotganidir. 2024-yil 1-fevraldan tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudsida ham "Oila sudyalari" tashkil etiladi va ikki nafer suda油aviy nizolarni ko'rishga ixtisoslashadi.

Umuman olganda, davalatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan farmon va qaror mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnni yanada oshirish, ularning faoliagini kuchaytirish hamda har tomonloma qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishi va bu pirovadida oilalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zebiniso RAHMONOVA,
viloyat hokimi o'rinosari — oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i.

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meiros xalqaro universitetida "Zarafshon" gazetasining 110, "Самаркандский вестник" gazetasining 105 yilligi munosabati bilan ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda taniqli jurnalistlar, shoir, yozuvchi va ziyyolilar qatnashdi. Viloyat hokimining o'rinxarlar Rustam Qobilov va Zebiniso Rahmonova viloyat hokimining tabrigini o'qib eshtittirdi.

- Bu ziyyolilar bayrami, - dedi Z.Rahmonova.

- O'zim ushu gazetalarni o'qib, katta bo'lganman. Yuz yildan ziyod tarixga ega "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari xalqimizga ziyo ulashib kelmoqda.

Gazeta har bir davrning zalvorli chig'iriqlaridan o'tdi. Bu dargohda ne-ne allommalar qalam tebrat-madi, deysiz. Bir asrlik muddat tarix uchun qisqa vaqtadir, ammo shu davrda "Zarafshon" gazetasini xalqimizga ma'rifikat va ma'naviyat ulashib kelmoqda.

- Tahririyatim tomonidan "Zarafshon kultubxonasidan" rukni ostida "Jurnalistligingni tashlama, bolam", "Tarbiya taqani to'g'rilaydi", "Yangicha yashash nima?" kabi kitoblar nashr ettirdik, - dedi "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari birlashgan tahririyat muharriri Farmon Toshev. - Ushbu kitoblarning aksariyati jurnalistlarimiz qalamiga mansub. Bu kitoblar oliygochlardagi jurnalistika fakulteti talabalariiga o'quv qo'llanma bo'lib ham xizmat qildi. Shuningdek, gazetalarimizning 110 va 105 yilligiga bag'ishlangan "Anqaboy Xudoybaxtov kim edi?", "Zarafshon" muharrirlari, "Samarqand akademiklari", "Zarafshon" - qadrdon dargohim "Zarafshon" fidoyilari" kabi kitoblar chop ettirdik. Bu ishlar avlodlarimiz uchun tarix bo'lib qoladi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar gazeta tarixi bilan bog'liq xotiralarni yodga oldi.

- "Zarafshon" gazetasini ilk bor bobomiz o'z uvida "Samarqand" nomi bilan chop etgan, - dedi Mahmudxo'ja Behbudiying evarasi Shohrux Behbudi. - Boshida o'zlarini ham muxbir, ham musahih, ham muharrir bo'iganlar. U vaqtida gazeta chop etish uchun hozirgiday zamonaviy dastgohlar bo'Imagan. Bobom qo'ygan tamal toshi, mana, bir asrki davomiyligini saqlab kelyapti. Biz, farzandlar bobomizning xayrlı ishlari bilan faxlanamiz.

XALQIMIZ TARIXI KO'ZGUSI

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari bir asrdan ziyod vaqtadan buyon chop etib kelinyapti



Viloyat hokimining o'rinxosari Rustam Qobilov Mahmudxo'ja Behbudi bilan bog'liq yangilikni aytdi.

- 2024-yilda Mahmudxo'ja Behbudiining umumeyi kengaytiriladi. Shuningdek, ayni paytda 1919-yilda Behbudi qatl etilgan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida uning qabrini topish ishlari boshlangan, - dedi R.Qobilov.

Tadbirda tahririyat xodimlaridan bir guruhi

viloyat hokimining tashakkurnomasi va sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, gazetaning sobiq muharrir va xodimlari, faol jamoatchi muxbirlar, tahririyat bilan yaqindan hamkorlik qilayotgan tashkilot va korxonalar vakillariga tashakkurnomalar topshirildi.

Tadbirda "Zarafshon" kutubxonasidan" rukni ostida chop etilgan kitoblar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Kurshida ERNAZAROVA.

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi institutida faoliyat yuritayotgan olimlar ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyat sohalarida bir qator yutuqlarga erishmoqda.

Nanotexnologiyalar sohasida yangilik

Jumladan, institutimizning optika va spektroskopiya kafedrasini olimlari Kiiev Milliy universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti olimlari bilan hamkorlikda "Biologik ob'ektlearning nano'Ichamli molekulay klasterlari o'rganish va tatbiq qilishning spektroskopik hamda noemperik tahlil usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi 2 milliard 700 million so'mlik grant loyihasida ishtiroy etmoqda. Mazkur loyihamda ilk bora tibbiyot va farmatsevtika sohalarida hamda biologik tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan biologik ob'ektlearning nano'Ichamli molekulyar klasterlarning xususiyatlari o'rganilmoqda. Turli biologik va biokimyoiy jarayonlarda asosiy manba va oqsillarning suvli eritmalarini tadqiq qilinadi. Ilmiy loyihanining maqsadi biologik obyektlarning suvli eritmalarining tuzilishi va xususiyatlarini mukammal o'rganishdan iborat bo'lib, asosiy e'tibor molekulalararo o'zarasidagi jarayonlarini o'rganishga qaratilgan.

Ushbu loyihanining amalga oshirilishi natijasida hayot faoliyati uchun zarur biologik obyektlarning spektroskopik xarakteristikalari aniqlanadi. Biologik obyektlarning nano'Ichamli molekulyar klasterlarning optimal usullari aniqlanadi va tatbiq qilish uchun tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, oly ta'lim muassasalarining tabiiy fanlar mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalariga, magistrlar hamda ilmiy xodimlarga mo'ljallangan ikkita o'quv adabiyoti yaratilib, amaliyotga joriy qilish rejalashtirilgan.

**G'ulom MURODOV,
G'ayrat SHARIFOV,
Muhandislik fizikasi instituti dotsentlari.**

4 TA TUMANDAGI XONADONLARNING AKSARIYATIGA HAMON RAQAM BERILMAGAN

2020-yil 11-noyabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda ahollini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingandi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimizning barcha hududlarida statistika organlari tomonidan mahalla faollari bilan birgalikda o'rGANISH ishlari olib borilmoqda.

O'rganishlarda ayrim mahallalarda raqamlashtirish ishlari to'liq yakuniga yetkazilmagan kuzatildi.

Jumladan, Nurobob tumanidagi 3517 ta xonadonga hali raqam berilmagan. Bunday xonadonlar Kattago'rg'on tumanida 11591 ta, Ishtixonda 8829 ta hamda Past Darg'omda 8213 tani tashkil etmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.

"Samarqandshahargaz"dagilar qamaladimi?

Nazorat tadbirlarida yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq holatlar fosh etilmoqda.

Xususan, Samarqand shahridagi "S.N." MCHJ rahbari A.M va "X.S." MCHJ jamiyatiga qarashli to'xonadagi gi gaz jihozlarini tabiiy gaz tarmog'iga o'zboshimchalik bilan ulaganligi oqibatida 512,4 ming metr kub 768,6 million so'mlik tabiiy gaz o'g'irlangan. Bunga "Samarqandshahargaz" gaz ta'minoti bo'limi mansabdor shaxslari mansab vakolatlarini suiiste'mol qilib, sharoit yaratilgan.

Holat yuzasidan "S.N." MCHJ rahbari A.M va "X.S." MCHJ mansabdor shaxslariga Jinoyat kodeksining 169-moddasi (o'g'rilik) va "Samarqandshahargaz" gaz ta'minoti bo'limi mansabdor shaxslariga Jinoyat kodeksining 205-moddasi (hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish) va boshqa moddalar bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Qishloq xo'jaligida yetakchimiz

Mamlakatimizda joriy yilning 9 oyida qishloq, o'rnoma va baliqchilik xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning umumiylaj hajmi 300 trillion so'mga teng bo'igan.

Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, mazkur ko'rsatkichning o'sish sur'ati o'tgan yilgiga nisbatan 0,5 foizga oshib, 104,1 foizga yetgan.

Mahsulot yetishtirish bo'yicha 36,8 trillion so'm bilan Samarqand viloyati peshqadam. Eng kam ko'rsatkich esa Qoraqalpog'iston Respublikasida - 9,1 trillion so'mni tashkil qilgan.

Hokimiyat institutlari shaffof

Hududlarning huquq ustuvorligi indeksi 2022-yil natijalarida hokimiyat institutlari shaffofligi - 64 ball to'plagan. Bu bilan 2021-yilda nisbatan 9 ball yuqorilagan.

Hokimiyat institutlarning shaffoflik ko'rsatkichi Samarqandda (72,5 ball) nisbatan yaxshiroq. Farg'onada (66,3 ball) ushu ko'rsatkich pastroq hisoblanadi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londan tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zairovna notarial idorasida marhum Sangnova Gulnoraga (2021-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meroz ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merozxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Kofirqal'a shaharchasi Darg'om kanalining chap qirg'og'ida, Afrosiyobning janubiy tomonida joylashgan. Qadimiy shaharning umumiyl maydoni 16 hektar bo'lib, ark, shahriston va rabotdan iborat. Ark kvadrat shaklida bo'lib, balandligi 25 metrni tashkil etgan. Shahriston ham shunday shaklda, tomonlari 360 metrdan. Rabotning katta qismi hozirda ekin maydoniga aylantirilganligi uchun uning aniq hajmi noma'lum. Ushbu yodgorlikda 1991-yildan buyon dastlab Y.G'ulomov nomidagi arxeologiya institutining arxeologik otryadi, so'ngra O'zbekiston-Italiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi, hozir esa O'zbekiston-Yaponiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi olimlari hamkorlikda qazishma ishlari olib bormoqda.

Kofirqal'a yodgorligi asrab-avaylanishi lozim



Qariyb o'n yildan ortiq vaqt mobaynida Arknинг ichidagi ayvon, hashamatli zal, hukmdor o'tirishiga mo'ljalangan taxtxona va boshqa inshootlar o'rganildi. Qazishmalar jarayonida Ark ichi nihoyatda boy va rang-barang yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgani ma'lum bo'ldi. Ularda inson shakllari bilan birga, har xil o'simliklar va nafis geometrik naqshlar ham ishlangan.

- Kofirqal'a Arknинг birinchi qurilish davrini qazish paytida juda ko'plab noyob osori-atqilar qo'liga kiritildi, - deydi Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimi Navro'z Alimov. - Shularidan biri loydan yasalgan bulla, ya'ni hukmdor yoki amaldor muhri nusxasidir. Qofirqal'adan topilgan bullalarda odamlar, hayvonlar va qushlar tasviri, tamg'a yoki har xil geometrik shakllar tushirilgan. Odam boshi tasvirlangan bullalarda yozuv bitilgan bo'lib, tasvir ancha aniq ifodalangan. Ushbu bullalarni tahlil qilgan olimlarning fikricha, bu tasvirlarda hukmdor, vazir va yirik amaldorlarning qiyofasi aks ettiligani.

VII-VIII asrlarda Samarqand Sug'dida yashagan ajdodlarimiz dunyoning turli tomonlaridagi hukmdorlar bilan elchilik, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar olib borgan. Pokistondagi Peshtovar shahrida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar jarayonida bir noyob bulla topilgan edi. Fransuz arxeologlari ushbu bulla aynan Samarqanddan, Kofirqal'adan jo'natilgan degan xulosaga kelgan.

Kofirqal'adan topilgan yog'och panno Sug'd san'atining noyob namunasi hisoblanadi. Panno ikkita keng va qalın taxtani temir mixlar bilan o'zaro bir-lashtirishdan hosil bo'lgan. Panning sirtida har xil liboslarla, q'llariqa turli xil asboblar, buyumlar va sovg'a-salomlar ushlab olgan yuzlab odamlarning shakllari o'yib ishlangan. Ushbu kompozitsiyaning asosiy syujeti ma'buda sig'inish, sovg'a-salomlar ehson

qilish sahnasidan iboratdir. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Kofirqal'a arki VIII asrning boshlarida yondirib yuborilgan. Shu tariqa juda boy va rang-barang devoriy suratlar, yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan saroy, dunyoning turli tomonlaridan olib kelingan noyob hujjatlar, yozishmalar yo'qolgan. Kofirqal'a VIII asrning boshlarigacha Samarqand hukmdorlarining shunchaki oddiy qarorgohi bo'lmay, balki bu yerda alohida umumadvat ahamiyatiga molik tantanalar, masosimlar, bayramlar hamda qabullar o'tkazilgan.

- Yaqinda yurtimizga kelgan Italiya Prezidenti Samarqandda ham bo'ldi, - deydi N.Alimov. - Ushbu tashrif davomida Registonda ko'rgazma tashkil etildi. Kofirqal'adan topilgan noyob tarixiy buyumlar namoyishi martabali mehmonning e'tiborini tortib, Italiya va O'zbekiston arxeologlari olib borayotgan qazishma ishlari qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Bugun ko'pchilik xorijliklarning e'tiborini tortayotgan ushbu yodgorlikni alohida e'tibor bilan saqlash, uni ochiq osmon ostidagi muzeyeiga aylantirish va shu orqali ilk o'rta asrlardagi Samarqand hukmdorlari saroyining asl holatini sayyojharga namoyish qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Alohida ta'kidlash lozimki, qadimiy shaharning shahristoni qismida yaponiyalik arxeologlar bilan qazishma ishlari olib borildi. Ammo qishning yog'in-sochlini kunlarda ushbu qazilgan hududlarni va tarixiy topilmalarning ustini yopish, hech bo'lmaganda, vaqtinchalik avyonlar qurilishi lozim. Aks holda qazilgan hududlardagi ochiq qolgan joylarda ming yillardan buyon saqlangan qadimiy devorlar va tarixiy ashyolar asl holatini va tarixiy ahamiyatini yo'qotishi mumkin.

To'Iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

28-DEKABR

Doni ZOKIROV – (1914-1985) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

29-DEKABR

Ibrohim NURMONOV – (1936-2007) Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston-da xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

30-DEKABR

Ravshan G'ULOMOV – 1960-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. Sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Dzyudo, kurash bo'yicha sport ustasi. Besh karra O'zbekiston championi.

31-DEKABR

Akbar OTAXO'JAYEV – (1926-1994) Turkiston shahrida tug'ilgan. Fizik olim. O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 326 nusxada chop etildi. Buyurtma 705. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftanining seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot shaharlari mintaqanining ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek rahnamoligida ushbu shaharlarda matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyyot va diniy bilimlarga e'tibor kuchaydi. Buxoro, Samarqand, G'ijduvonda madrasalar qurildi. Adabiyyot sohasida Atoiy, Sakkociy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiy qalamiga mansub asarlar yaratildi. Ular orasida alohida e'tiborga molik sho'r, o'zining betakror g'azallari va qasidalar bilan o'zbek mumtoz adabiyyotida yorqin iz qoldirgan yuksak iste'dod sohibi Sakkociy edi.

Shoir Yaqiniy "O'q va Yoy" asarida Sakkociyni "turk shoirlarining mujtabili (g'ayratisi)" deb ta'riflaydi va o'z zamonasining zardonast shoirlaridan birekanligini ta'kidlaydi.

Sakkociy Samarqandda umrguzaronlik

qilgan. Sakkociy shoirlarning taxallusi bo'lib, uning asl ismi ma'lum emas. "Sakkok" (pichoqchi) so'zidan shoirlarning hunarmand oilada tug'ilganligini taxmin qilish mumkin. Sakkociy XIV asrning ikkinchi yarmida tug'ilganligini 1407-1408-yillarda Amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga bag'ishlangan quyidagi qasidasi satrлaridan ham bilsa bo'ladi:

Tarixqa sakkiz yuz dog'i o'n erdiyu qadr axshomi,
Bir oy tug'uddi dunyoda kim mamlakatda xon erur.

Sakkociy tomonidan tuzilgan devonning bir necha qo'lyozma nusxalari ma'lum bo'lsa-da, bu nusxalarning birorasi to'la va muhammad shaklda bizning davrimizgacha yetib kelmaygan. London, Buyuk Britaniya muzeylearida devonning taxminan XVI asr o'talarida ko'chirilgan bir nusxasi hamda O'zbekiston Fanlar

akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1937-yilda Shoislom ismli kotib tomonidan qaysidir manbadan ko'chirilgan nusxalari saqlangan, xolos.

Shoirning XV asr o'talarida vafot etganligini Navoyning Samarqandda bo'lgan yillarda Sakkociy muxlislari bilan uchrashgani va suhbathashgani bilan izohlash mumkin. Nimagaki, Sakkociy bu davrda hayot bo'lmagan, agar hayot bo'lganida Navoiy uning o'zi bilan uchrashgan bo'lardi.

Hazrat Alisher Navoiy aytganidek, Maylono Sakkociyning ajoyib she'rlari va betakror qasidalar o'zbek mumtoz adabiyyotining ravnaq topishiga hissa qo'shan ijod namunalari sifatida tarixga muhrlandi.

Asliiddin SAFAROV,
Registon ansamblı gidlar
bo'limi boshlig'i.

Hikoya YOLG'IZ ONA



Qishloqda tong havosi kishiga o'zga-chaga huzur bag'ishlaysidi. Ayvonda so'rida o'tirib, eringannamo havodon to'yib-to'yib nafas oldim. Shu payt hovli biqinidagi tandirxonadan onamning ovozi eshitildi:
- Uyg'ondingmi bolam, non yopyapman, tomdan o'tin olib tushib ber. Keyin issiq non bilan no-nushta qilamiz.

Xo'p bo'ladi, oyi.
Chala-chulpa yuvinib, tomga chiqdim. O'tin g'arami yonida kabutar in qilib olibdi. Uning polapolnari bolalari ham bor edi. Qiziqsinib, ularni tomosha qila boshladim. Kabutar bolalari juda kichkina, ammo harakatchan edi. Ularni tomosha qilib biroz qolib ketdim shekilli, onam chaqirib qoldi:

- Nonim o'tib ketadi, tandirni qizdirishim kerak hali, tezroq olib tush, o'g'lim!

- Hozir, oyijon, tushyapman.

Onamga o'tin olib tushib bergach, yana tomta chiqdim. Ne-gadir kabutar bolalari qattiq pitirchilar edi. Shu payt yonginamda "vish" etgan ovoz eshitildi. Birdan seskanib, o'zimni chetga oldim. Ilon kabutarga hamla qilish uchun shaylanayotgan edi. Men qo'rqanimdan shoshib, ortimga tisarilib, tomdan tushib oldim.

Ko'p o'tmay ona kabutar hovlida charx urib aylana boshladi. U shoxdan, bu shoxga qo'nib, chirqillardi. Men tezda tomta shoshildim, nahotki uning bolalarini ilon yeb qo'yan bo'lsa. Ona kabutarning jufti in oldida o'lik yotardi. Yaxshiyamki bolalariga hech narsa qilmadidi.

Bu voqeя ko'z oldimdan ketmasdi. Uch-to'rt kun o'ziga kelolmay yurdim. Yolg'iz qolgan kabutarning ahvoli juda achinari edi. Onam non yopganda o'tin olib berish uchun har safar tomta chiqqanimda bu voqeя ko'z oldimdan o'tardi. Kabutarga yordam bermoqchi bo'ldim, ammo kabutarning bolalariga ziyan yetkazib quyishdan qo'rqedim.

Biroz vaqt o'tib kabutarning bolalari uchishni boshladi. Bunda-juda xursand bo'ldim. Yolg'iz qolgan onanining shijoatini jajji qushchalarda ko'rdim.

Bekzod KENJAYEV.

"FALON NARSA"NING O'RNIIDA KITOB BO'LSA...

Tongda uyqudan ko'zimizni ochaniz. Soat necha bo'lganini bilish bahonasida telefonni qo'lga olamiz. Biror shov-shuvli yangilik yoki kimdanidir xabar kelmadimikan, degan xayol bilan ijtimoiy tarmoqlardagi sahilfalarimiz kirib ko'rishga qaror qilamiz. Shu bilan anchagini vaqtimiz o'tib ketganini sezmay qolamiz. Shosha-pisha yuvinib, nonushta qilib, ishga jo'naymiz. Yo'lda, hatto ishxonada ham imkon bo'lib qolsa, yana telefonga tikilamiz. Uyga qaytib, albatta, ertalabki holat takrorlanadi.

Farzandlarimiz uchun juda muhim ish bilan banddek ko'rnamiz. Hatto olisda ko'zlarini yo'limizda, izimiga mushtoq bo'lib o'tirgan onamiga bora qo'ng'iroq qilishga imkon topa olmaymiz, go'yo. Ayniqsa, telegramda guruhlar va kanallar shunchalar ko'pki, ularning ayrimlariga qanday bog'lanib qolganimizni bilmaymiz.

Onlayn savdo: kiyim-kechak, mebel, dori-darmon... Xullas, hamma narsani xarid qilishningiz mumkin. Ba'zan ayrim firibgarlarga ishonib, million-million so'm pulimizdan ayrib qolayotganimiz ham bor gap.


Kimdir oxirgi marta qaysi kitobni o'qiganimiz haqida qiziqib, savol bersa, buning uchun vaqt yetishmayotganligini aytamiz. Yaqinda jiyanim meni telegramdagida bir guruhga qo'shib qo'yo'di. Avvaliga nomi ingliz tilida ekanligi uchun ochmasdan chiqib ketmoqchi edim. Ammo "books" degan so'zga ko'zim tushib, kitob haqida nimadir bor, degan xayol bilan ichiga kirib ko'rdim. Rost, xursand bo'ldim. Olis qishlog'imizda ochilgan kitob do'koniga guruhi ekan. Bu guruhga a'zo bo'lsak, arziyi. Kitob rasmi va asardan keltirilgan iqtibos sizni albatta, mutolaaga chorlaydi. Asarni to'liq o'qigingiz keladi. To'g'ri, bugun har qanday asarni internet tarmog'i orqali topib o'qish mumkin, ammo kitob mutolaasining zavqi boshqacha.

Olis hududlarda kitob do'konlari ishga tushayotgani quvonlar, albatta. Faqat bu imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz kerak. Bolaligimda Qo'shrabot tumani markazida bitta kutubxona va bir kitob do'konini bo'lardi. Ulardan istagan kitobimizni topishimiz mumkin edi. Keyinchalik esa ikkisi ham yopilib ketdi. Bundan 15 yillarda olib shoir Muhammad Yusufning "Saylanma"si va bir nechta yangi badiiy kitoblar so'lib olish uchun 100 kilometr yo'l bosib, Samarqand shahriga borganim esimda. Bu haqida aytmas, kimgadir kulgili tuyulishi mumkin, ammo o'sha kitoblar dunyoqarashimni o'zgartirgan, oq bilan qoraning farqiga borishni, odob-axloq qoidalarini, muomala madaniyatini o'rgatgan. Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishga undagan.

Kechagina yana bir xushxbabni o'qib qoldim. Tumandagi ikki chekka qishloqda tashabbuskorlar tashkil etgan xalq kutubxonalariga hokimlik tomonidan kitoblar jamlanmalari yetkazilib. Faqat ularni o'qiydigan kitobxonalar ko'p bo'lishi kerak! Xullas, qo'l telefonimiz bilan o'tkazadigan vaqtimizni tejab, mutolaa uchun sarflasak, farzandlarimiz ham bizga ergashadi. Yana bir gap, ijtimoiy tarmoqlardagi reklamalar ham ko'prod kitob haqida bo'lsa. Masalan, "Falon narsa uchun aksiya keytapti, arzon narxlarda, ikkitga olsganiz, yana bitta qo'shib beriladi. Yetkazish bepul!" kabi e'lonlardagi "Falon narsa"ning o'nida kitob bo'lsa, qanday yaxshi-ya?

Dilnoza HASANOVA.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda